

**"Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi
hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha
NIZOM**

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom "Sharg'unko'mir" AJ (keyingi o'rirlarda – Jamiyat deb yuritiladi)da korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi to'g'risidagi hisobdorlikni shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. "Sharg'unko'mir" AJ korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo'yicha hisobotlarni (*keyingi o'rirlarda – Hisobotlar*) shakllantirish va taqdim etish uchun ma'suliyat "Sharg'unko'mir" AJning Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati yoki mas'ul xodimlari zimmasida bo'ladi.

"Sharg'unko'mir" AJ hisobotni taqdim qilish uchun ma'suliyat tashkilotlardagi Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati mas'ul xodimi (*keyingi o'rirlarda – Mas'ul xodim*) zimmasida bo'ladi.

II-bob. Hisobot turlari va uni tuzish davriyligi

3. "Sharg'unko'mir" AJda quyidagi hisobot turlari nazarda tutiladi:

a) "Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi, shu jumladan, "Sharg'unko'mir" AJning korrupsiyaga qarshi Dasturi yoki yo'l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini bo'yicha hisobot har chorakda Ichki nazorat bo'limi tomonidan mazkur Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

b) Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot har chorakda Ichki nazorat bo'limi tomonidan mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

5. Hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, "Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan, shuningdek, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilgan yoki yo'qligidan qat'iy nazar, tuziladi.

6. Yilning IV choragi uchun hisobot tuzilmaydi, uning o'rniga yillik hisobot tayyorланади.

7. Har choraklik va har yillik hisobot "Sharg'unko'mir" AJ rahbariyatiga topshiriladi.

"Sharg'unko'mir" AJning Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining 25 sanasidan kechiktirmay har choraklik "Sharg'unko'mir" AJning umumiy hisobotini O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (*keyingi o'rirlarda – Agentlik*) ko'rib chiqishi uchun kiritib boradi.

8. "Sharg'unko'mir" AJning yillik hisobotidagi umumiy axborot rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori talablariga muvofiq "E-Anticor.uz" elektron platformasiga joylashtiriladi. Mazkur axborot "Sharg'unko'mir" AJning Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati tomonidan tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Bosh prokuratura talablariga muvofiq Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmatining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi hisobot taqdim etilishi mumkin.

III-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risida hisobotni shakllantirish tartibi

9. "Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, "Sharg'unko'mir" AJning korrupsiyaga qarshi Dastur yoki "Yo'l xaritasi" tadbirlarini amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

10. Hisobot har chorakda Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 10 sanasidan kechiktirmay tuziladi va Bosh direktorga ko'rib chiqish uchun topshiriladi.

11. Hisobotni shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) hisobot davridan keyingi oyning 2 sanasidan kechiktirmay, "Sharg'unko'mir" AJning Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmatining Mas'ul xodimlarga ushbu oyning 5 sanasigacha tegishli rahbarlar tomonidan tasdiqlangan mazkur Nizomga l- ilovaga muvofiq hisobot taqdim etishi to'g'risida xabarnoma yuboradi;

b) "Sharg'unko'mir" AJ hisoboti Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati tomonidan tuziladi va Bosh direktorga tomonidan tasdiqlanadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to'g'risidagi hisobotning biron-bir bo'limi bo'yicha tadbirlar o'tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko'rsatish lozim.

v) hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi kerak;

g) Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati ushbu Nizomga 2-ilovada ko'rsatilgan shaklda sohada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tizimning faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiy hisobotni tuzadi hamda qo'shimcha ravishda unga ushbu Nizomga 1-ilovadagi shakl bo'yicha "Sharg'unko'mir" AJ tizimi bo'yicha tuzilgan hisobotdagi ma'lumotlarni kiritadi.

Hisobotda asosiy axborotni o'zida aks ettirgan qisqacha ma'lumotnoma va takliflar bo'lishi kerak. Yillik hisobot o'z ichiga o'tgan yilning xuddi shunday ko'rsatkichlariga ega bo'lган solishtirma tahlilni ham qamrab olishi kerak.

12. "Sharg'unko'mir" AJ tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi hisobotni tuzishda Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati tegishli bo'linma xodimlaridan zarur hujjatlar, tushuntirish va statistikani so'rash va olish huquqiga ega.

13. Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati qisqa ma'lumotnoma biriktirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiy hisobotini hisobot davridan keyingi oyning 10 sanasigacha Bosh direktorga taqdim etadi.

IV-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashga oid davlat dasturlarida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobotni shakllantirish tartibi

16. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida (*agarda mayjud bo'lsa*) rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shaklda tuziladi.

17. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati tomonidan "Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi umumiy hisobot bilan bir vaqtida tuziladi.

18. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilgani to'g'risidagi hisobot Bosh direktor tomonidan ko'rib chiqilgandan keyin Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga "E-Anticor.uz" elektron platformasi orqali yuboriladi.

V-bob. Yakuniy qoidalar

19. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va "Sharg'unko'mir" AJning ichki idoraviy hujatlarga o'zgartish va qo'shichalar kiritilgan taqdirda ushbu Nizom qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga "Sharg'unko'mir" AJning markaziy apparatdagi Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati ma'sul bo'ladi.

"Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to 'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizomiga
1-tilova

"Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to 'g'risidā hisobot

Tashkilot nomi:	
Hisobotni tayyorlagan xodim (Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ma'sullar):	F.I.Sh., lavozimi, tuzilmasi
Hisobot davri:	
Hisobot tayyorlangan sana:	

T/r	Tadbirlar guruhining nomlari	Tadbirlarniн g nomlari	Bajarish muddati	Ma'sul ijrochilar	Ijro to 'g'risida belgi	Ijro etilmagan bo'lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat	Bajarilganlik ni tasdiqlash, bajarilmagan bo'lsa sabablari

T/r	Tadbir	Natijalar
I. Siyosatlar va tartib-taomillar		
1.	Ichki hujjatlarni moslashtirish	"Sharg'unko'mir" AJda hisobot davri uchun moslashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha choralar yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tartib-taomillarga ega bo'lgan ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ko'rsatish zarur.
2.	Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish.	Hisobot davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ko'rsatish zarur.
II. Shaxsiy namuna		
3.	Bosh direktor va uning o'rindbosarlarining ichki tadbirdargagi chiqishlari (nutqi).	3-6-bandlarda "Sharg'unko'mir" AJ rahbarlari va ularning o'rindbosarlarining qonunchilik talablariga

		rioya qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish, tarkibiy bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to'g'risidagi pozisiyasi, fikr mulohazalari ochiq e'tirof etilgan tadbirlarni ko'rsatish lozim.
4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (Bosh direktor va uning o'rindbosarlarining nomidan).	
5.	Bosh direktor va uning o'rindbosarlarining OAVdagi fikr-mulohazalari.	

III. Xavf-xatarlarni baholash

6.	"Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo'yicha har yillik baholash o'tkazish	Ha o'tkazilgan yo'q o'tkazilmagan (sabablari ko'rsatiladi) \ jarayonda (qaysi bosqichdaligi ko'rsatiladi)
7.	Hisobot davri uchun "Sharg'unko'mir" AJda ish jarayonda yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o'rta, past).	Yangi korrupsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning darajasi sanab o'tiladi. Qanday korrupsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandi, yangi daraja, bahoni o'zgartirish sabablari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha takliflar. "Sharg'unko'mir" AJning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi.
8.	Hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar	
9.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq tavakkal yuqori bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning foizdagi nisbati ko'rsatiladi
10.	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko'rsatish zarur.

IV. Korrupsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar

11.	"Sharg'unko'mir" AJda aniqlangan manfaatlari to'qnashuvi holatlari va qabul qilingan choralar	"Sharg'unko'mir" AJda aniqlangan manfaatlari to'qnashuvi holatlarining sonini ko'rsatish yoki aniqlangan manfaatlari to'qnashuvi holatlari reyestri ni ilova qilish zarur.
12.	Xodimlar tomonidan har yili manfaatlari to'qnashuvini deklaratsiya qilish.	Har yillik manfaatlari to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning tashkilotdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Har yili manfaatlari to'qnashuvi deklaratsiyasini amalga oshirishi shart bo'lган manfaatlari to'qnashuvini deklaratsiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning tashkilotdagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur.

13.	Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni.	"Sharg'unko'mir" AJga ishga qabul qilingan xodimlar sonini va "Sharg'unko'mir" AJdag'i lavozimiga nomzodlar tekshiruvi sonini ko'rsatish zarur. Tekshiruv o'tkazilmagan bo'lsa sababini ko'rsatish zarur.
14.	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari sonini, tekshiruvlar natijalari bo'yicha ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Tekshiruv o'tkazilmagan bo'lsa sababini ko'rsatish zarur.
15.	Amalga oshiriladigan boshqa korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar	Mavjud bo'lganda ushbu bo'limda ko'rsatilmagan boshqa amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi tadbirlarni ko'rsatish.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

16.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish: barcha xodimlar uchun; korrupsiyaviy tavakkallchilikka eng ko'proq moylilik ehtimoli bo'lgan vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar uchun.	Treninglar turi va shakli, o'qitilgan xodimlar soni, ularning lavozimlari darajasi va bo'linmalarni ko'rsatish.
17.	"Sharg'unko'mir" AJga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o'tkazish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglardan (umumiy, tanishuv) o'tgan yangi xodimlarni umumiy yangi xodimlar soniga foizlardagi nisbatli treninglar mavzusi kesimida ko'rsatish.
18.	Xodimlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo'linmada amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi choralaridan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar	Tadbir ishtiroychilarning maqsadli guruhini, ularni soni (imkon bo'lsa), mavzusi va turini (masalan, tanlovlari, viktorinalar, so'rovnomalari va b. ko'rsatiladi) va uning yakunlarini ko'rsatish.
19.	Korrupsiyaga qarshi kurash uchun ma'sullar tomonidan bajarilgan korrupsiyaga qarshi kurash me'yordi mavzusida axborot-tarqatma materiallari.	Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zaruriyati to'g'risidagi, shu jumladan, ularning to'g'ri talqin qilinishi va ularga to'g'ri amal qilish to'g'risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallari.
20.	Xodimlarning ahloq-odob madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning talablari xaqida xabardor qilishning boshqa usullari.	Masalan, binolardagi axborot plakatlari va boshqa materiallari, skrinsvayerlar, ishchi kompyuterlar ekraniga qo'yiladigan suratlar va boshqalar.
21.	Fuqarolik jamiyati va bo'linma kontragentlari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish	Fuqarolik jamiyati vakillari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishning soni, nomlanishi, mohiyati va natijalarini ko'rsatish (masalan, korrupsiyaga qarshi kurash kuni, korrupsiyaga qarshi mavzudagi ishlari tanlovi). Shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar kiritilgan yangi kontragentlarning yangi kotragentlarning umumiy soniga foizlardagi nisbati.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakalar va qoidabuzarliklar to'g'risidagi xabarlar.

Ta'sir choralar		
22.	Xatti-xarakatlar, shu jumladan, potensial xatti-xarakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni	Xabarlar sonini quyidagi ma'lumotlarni ham kiritgan holda ko'rsatish: kelib tushgan sanasi kelib tushgan aloqa kanali, xabar mavzusi, tegishli hisobotni ilova qilish.
23.	Xizmat tekshiruvi o'tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to'g'risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlangan holatlar soni.	Har bir band bo'yicha holatlar sonini ko'rsatish.
24.	Qabul qilingan ta'sir choralar.	Qanday korreksiyalash choralar, shu jumladan, intizomiy choralar, ichki nazorat tizimida qanday kamchiliklar aniqlandi va nazoratni kuchaytirish uchun qanday choralar taklif qilindi.
VII. Monitoring va nazorat		
25.	Hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablari, nazorat tadbirdi va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilganligi	"Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mas'ullar tomonidan o'tkazilgan tekshiruv tadbirdarini, shu jumladan, ularning sonini quyidagi kesimda ko'rsatish Tekshiruv obyektlari (boshqarma, bo'lim); Tekshiruv mayzusi (masalan, xaridlar, kadrlar); Tekshiruv tadbirdi turi (audit, tavakkal tranzaksiyalari monitoringi yoki protseduralari va b.); Tekshiruv tadbirdi xarakteri (rejali, rejadan tashqari).
26.	Bo'linmada belgilangan nazorat tadbirdi va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralar?	Qaysi tartib-taomil yoki vazifani bajarishda qanday qoidabuzarliklar aniqlangan? Aniqlangan holatlar sonini ko'rsatish. Vazifa va tartib-taomillarni bajaruvchi shaxslar uchun qanday tavsiyalar tayyorlangan. Ular qanday rasmiylashtirilgan (masalan, buyruq yoki boshqa ichki hujjatlar)?

Xulosalar: Tizimda korrupsiyaga qarshi choralarini amalga oshirishning asosiy natijalarini ko'rsatish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiyo baho berish, zaruriyat tug'ilganda avvalgi davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o'tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini ko'rsatish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va korreksiyalovchi tadbirdar rejasi: kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirdarni ko'rsatish zarur.

"Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurash
tizimining holati to'g'risidagi hisobotni
shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizomiga
2-ilova

**"Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi
to'g'risida 202 yil chi chorak uchun
UMUMIY HISOBOT**

**I. "Sharg'unko'mir" AJning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi
bajarilgani to'g'risida umumiy axborot.**

"Sharg'unko'mir" AJ tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarning amalga oshirilgani to'g'risidagi qisqa ma'lumot, shu jumladan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'limlar kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirgan bo'linmalar sonini ko'rsatish zarur;

Tarkibiy bo'limlar kesimida Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarni amalga oshirmagan bo'linmalar ko'rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi, amalga oshirilmagan tadbirlar va qisqacha-asosiy sabablarini alohida ko'rsatish lozim.

II. Siyosat va tartib-taomillar.

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha sohalarni tartibga soluvchi, va hisobot davrida boshqaruv apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida tatbiq etilgan korruptsiyaga qarshi kurash sohasiga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy va ichki hujjatlar (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va shu kabilar)ni ko'rsatish lozim.

III. Xavf-xatarlarni baholash.

"Sharg'unko'mir" AJ tomonidan xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi to'g'risidagi axborot, shu jumladan, korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirgan va o'zlarining korruptsiyaviy xavf-xatarlar matritsasini yangilagan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatish kerak;

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmagan tarkibiy bo'limlari soni, "Sharg'unko'mir" AJning tarkibiy bo'limlari kesimida ko'rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi va ularning bajarilmaganligi sabablari qisqacha ko'rsatiladi;

Baholash jarayonida yangi aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlar markaziy apparat, va tarkibiy bo'limlari kesimida ko'rsatiladi. Shuningdek, hisobot davrida aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha taklif etilgan va amalga oshirilgan tadbirlar qayd etiladi;

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo'yicha nisbati (yuqori, o'rta, past) tarkibiy bo'linmalari kesimida ko'rsatiladi;

Tarkibiy bo'limlar kesimida "Sharg'unko'mir" AJ uchun yuqori bo'lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko'rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun taklif etilayotgan tadbirlarni ko'rsatish lozim (mavjud bo'lgan taqdirda).

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish.

Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlari soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash jarayonida (mavjud bo'lgan taqdirda), markaziy apparat, tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatiladi;

"Sharg'unko'mir" AJda manfaatlar to'qnashuvini markaziy apparat va tarkibiy bo'linmalar kesimida manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning umumiyligi xodimlar soniga foizlardagi nisbati, shuningdek, deklaratsiyalangan va tartibga solingan manfaatlar to'qnashuvi holatlari qayd etiladi;

"Sharg'unko'mir" AJ bo'yicha rejalashtirilgan manfaatlar to'qnashuvining har yillik deklatsiyalananadigan manfaatlar to'qnashuviga nisbatan ko'rsatkichlari bajarilmagan hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida tahliliy ma'lumotlarni keltirish kerak (masalan, manfaatlar to'qnashuvini barcha rahbarlar deklaratsiyalashi lozim, amalda esa faqat 50% gina rahbar buni bajargan);

Tarkibiy bo'linmalar kesimida "Sharg'unko'mir" AJ tizimida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi va qabul qilingan choralar bo'yicha, shu jumladan, umumiyligi soni va toifalar kesimida (*masalan, xarid tartib-taomillaridagi, ish bo'yicha bevosita bo'ysunish natijasida va shu kabilarda*) tahliliy ma'lumotlarni keltirish lozim.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni "Sharg'unko'mir" AJ shartnomalariga kiritish.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni "Sharg'unko'mir" AJning xo'jalik shartnomalariga (shartnomalarning foizli nisbati) kiritish bo'yicha, shu jumladan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'limlari kesimidagi kontragentlar tahririda tahliliy ma'lumotlarni keltirish, kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etish sabablarini ko'rsatish;

Markaziy apparat va tarkibiy bo'linmalar kesimida "Sharg'unko'mir" AJ tizimida kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni ko'rsatish.

Kontragentlarni tekshirish.

Hisobot davrida kontragentlar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar soni, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati markaziy apparat va tarkibiy bo'limlar kesimida ko'rsatiladi.

Ishga nomzodlarni tekshirish.

Boshqaruv apparat va tarkibiy bo'limlari kesimida "Sharg'unko'mir" AJ tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar sonini ko'rsatiladi.

V. Ta'lim va kommunikatsiya.

“Sharg’unko’mir” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishning natijalarini markaziy apparat va tarkibiy bo‘limlari kesimida: o‘qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati, ta’lim shakli (bevosita/onlayn) ko‘rsatiladi;

Markaziy apparat va tarkibiy bo‘limlari kesimida “Sharg’unko’mir” AJ tizimi bo‘yicha o‘qitish darajasi past bo‘lgan korrupsiyaga qarshi ko‘nikmalarga oid axborot ko‘rsatiladi (rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga taqqoslangan holda);

“Sharg’unko’mir” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kommunikatsiya turlari va sonini va tarkibiy bo‘limlari kesimida (masalan, tarqatmalar, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish) ko‘rsatiladi;

Bo‘limda, shuningdek, “Sharg’unko’mir” AJ tizimida o‘tkazilgan keng ko‘lamli alohida tadbirlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘risidagi xabarlar.

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar markaziy apparat va tarkibiy bo‘limlari kesimida ko‘rsatiladi;

Mansab vazifalari va tartib-taomillar kesimida olingan tahliliy ma’lumotlar (masalan, xaridlar jarayonida, kadrlarni ishga qabul qilish bilan bog‘liq tartib-taomillarda) keltiriladi;

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar qoidabuzarliklar kesimida keltiriladi (masalan, korrupsiyaviy xatti-xarakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, kelishuv tartib-taomillarini buzish va boshqalar);

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi (masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar).

VII. Monitoring va nazorat.

Markaziy apparat va tarkibiy bo‘limlari kesimida hisobot davrida “Sharg’unko’mir” AJ tizimi tomonidan mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilgani to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keltiriladi, shu jumladan, tekshiruvlar o‘tkazilgan, shuningdek, tekshiruv o‘tkazilgan vazifalar va tartib-taomillarining davriyligi va xarakteri to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar (rejadagi, rejadan tashqari) ko‘rsatiladi;

Tarkibiy bo‘limlari kesimida tekshiruvlar o‘tkazilmagan bo‘limlar soni alohida ko‘rsatiladi, ilovada ularning nomi hamda tekshiruvlar o‘tkazilmaganligining asosiy sabablari qisqacha qayd etiladi;

O‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari to‘g‘risidagi umumiy axborot ko‘rsatiladi, shu jumladan, ijobiylar va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati qayd etiladi. Qoidabuzarliklar mavjud bo‘lsa, mazkur hisobotning VIII bo‘limga havola beriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari.

“Sharg’unko’mir”AJda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi talablarning buzilganligi to‘g‘risida markaziy apparat va tarkibiy bo‘limlari kesimida tahliliy ma‘lumotlarni ko‘rsatiladi, shu jumladan:

qoidabuzarliklarning umumiyy soni;

qoidabuzarliklarning qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi axborot manbalari bo‘yicha tuzilmasi (“ishonch telefoni”, bevosita xabar berish, monitoring va nazorat natijalari va boshqalar);

“Sharg’unko’mir”AJ ichki hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar va tartib-taomillar bo‘yicha (xaridlar, kadrlarga oid masalalar va b.) qoidabuzarliklar tuzilmasi.

“Sharg’unko’mir”AJda qabul qilingan ta’sir choralar to‘g‘risida tahliliy ma‘lumotlarni hududiy va tarkibiy bo‘linmalarini kesimida ko‘rsatish, shu jumladan:

o‘tkazilgan umumiyy tadbirlar soni va aniqlangan barcha qoidabuzarliklar bo‘yicha ta’sir choralar ko‘rilganligi yoki ko‘rilmaganligi;

ta’sir choralar turlari bo‘yicha tahliliy ma‘lumotlar (aybdorlarni javobgarlikka tortish, shu jumladan, javobgarlik turlari kesimida; “Sharg’unko’mir”AJ tizimi jarayon va ichki hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish va boshqalar), shu jumladan, zarur bo‘lgan holda qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qanday tadbirlarni tatbiq etish taklif etilmoqda va hisobot davrida qanday tadbirlar tatbiq etilganligi ko‘rsatiladi.

IX. Xulosalar.

“Sharg’unko’mir”AJ tizimida va tarkibiy bo‘limlari kesimida korrupsiyaga qarshi choralarini amalga oshirishning asosiy natijalari ko‘rsatiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiyy baho beriladi. Zaruriyatga ko‘ra avvalgi davrlardagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o‘tkaziladi, qoniqarli natjalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini qayd etiladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi.

Keyingi hisobot davrida “Sharg’unko’mir”AJ tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko‘rsatkichlarni markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ko‘rsatiladi.

"Sharg'unko 'mir" AJda korrupsiyaga qarshi kurash
tizimining holati to'g'risidagi hisobotni
shakllantirish va taqdim etish bo'yicha
Nizomiga 3-ilova

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturida rejalashtirilgan
tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi
HISOBOT**

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirilgan choralar